

Uzbekistan Airways TDTU talabalari bilan uchrashuvda ishtirok etdi

2026 24 Fevral

Toshkent davlat transport universitetida talabalar va O'zbekistonning yetakchi transport tashkilotlari rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Uzbekistan Airways nomidan Boshqaruv raisining parvoz ishlarini tashkil etish bo'yicha o'rinbosari Shaxzod Ikramov so'zga chiqdi.







Uchrashuv talabalarga sohani rivojlantirishning dolzarb tendensiyalari va istiqbollari bilan yaqindan tanishish, shuningdek, kasbiy o'sish va karyera imkoniyatlari masalalarini muhokama qilish imkonini berdi.



